

UDK: 616.155.392-053.2(575.1):614.2

O'ZBEKISTONDA BOLALARDA UCHRAYDIGAN O'TKIR LIMFOBLAST LEYKEMIYA KASALLIGI BILAN KASALLANISH KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

Sultonova G.A.¹, Sadikova G.E.¹, Turdaliyeva M.M.²

¹Farmasevtika ta'lim va tadqiqot institute, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

²Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligidan olingan statistik ma'lumotlarga asoslangan holda O'zbekiston hududida bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligining tarqalish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Unga ko'ra 2022-2024 yillar davomida shu kasallik bilan kasallangan bolalar statistikasi o'rganildi. Bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligining barcha viloyatlar va Qoraqolpog'iston Respublikasida tarqalish ko'rsatkichlari va qizlar xamda o'g'il bolalarda bu kasallikning tarqalish holatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: onkologiya, limfoblast leykemiya, kasallanish ko'rsatkichi, statistika, farmakoeconomik tahlil.

Аннотация

На основании статистических данных Министерства здравоохранения Республики Узбекистан была проанализирована распространенность острого лимфобластного лейкоза среди детей в Узбекистане. Согласно этому изучено распространение заболеваемости среди детей в 2022-2024 гг. Также был проведен анализ возраста и пола. Была изучена распространенность острого лимфобластного лейкоза среди детей во всех областях и Республики Каракалпакстан, а также распространенность этого заболевания среди детей и мальчиков.

Ключевые слова: онкология, лимфобластный лейкоз, показатель заболеваемости, статистика, фармакоэкономический анализ.

Abstract

Based on statistical data from the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, the prevalence of acute lymphoblastic leukemia among children in Uzbekistan was analyzed. Based on this data, the incidence rate among children in 2022-2024 was examined. Age and gender analysis were also conducted. The prevalence of acute lymphoblastic leukemia among children in the regions and the Republic of Karakalpakstan, as well as the prevalence of this disease among children and boys, was studied.

Keywords: oncology, lymphoblastic leukemia, incidence rate, statistics, pharmacoeconomic analysis.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligidan olingan statistik malumotlarga asoslangan holda O'zbekiston hududida bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligining tarqalish

ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Unga ko'ra 2022-2024 yillar davomida shu kasallik bilan kasallangan bolalar statistikasi o'rganildi. Bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligining barcha viloyatlar va

Qoraqolpog'iston Respublikasida tarqalish ko'rsatkichlari va qizlar xamda o'g'il bolalarda bu kasallikning tarqalish holatlari o'rganildi.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotiga asosan onkologik kasalliklarning o'sish va o'lim ko'rsatkichi butun dunyo bo'yicha 1999-2020 yillar oralig'ida 2 marta ko'payganligi, ya'ni yangi kasallanish ko'rsatkichining 10 mln. dan 20 mln. ga oshganligi, o'lim ko'rsatkichining 6 mln. dan 12 mln. gacha o'sganligi kuzatilmoqda [1].

Prezidentimizning 2017-yil 4-aprelda qabul qilingan. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori aholiga ixtisoslashgan onkologik tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yaxshilash va aholining barcha qatlamlarini to'la qamrab oluvchi tizimini shakllantirish hamda rivojlantirishda muxim dasturil amal bo'lmokda [2].

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligidan olingan statistik malumotlarga asoslangan xolda O'zbekiston hududida bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligining tarqalish ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

Usullar. Dori vositalarining qiyosiy tahlili, kontent tahlil, zamonaviy matematikaning statistik tahlil qilish

Natijalar. Ilmiy izlanish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligidan olingan o'tkir limfoblast leykemiya kasalligining O'zbekiston hududida tarqalish statistik malumotlaridan foydalanildi. Olingan statistik malumotlarga ko'ra O'zbekistonda bu kasallik bilan kasallangan bolalar salmog'i ancha katta ekanini


ko'rishimiz mumkin. Respublikamizda xar yili 700 nafarga yaqin bolalarda xavfli o'sma kasalliklari aniqlanadi. 3000 nafarga yaqin bola esa dispanser nazoratida turadi. Biz ilmiy izlanishlarimizda Respublikamizda 2022-2024 yillar davomida o'tkir limfoblast leykemiya bilan kasallangan bolalar statistik tahlilini o'rgandik [4].

Unga ko'ra O'zbekistonda 2022-yilda 351 ta, 2023-yilda 385 ta, 2024-yilda 378 ta bola o'tkir limfoblast leykemiya kasalligi bilan ro'yxatga olingan. Asosan limfoblast leykemiya bilan kasallangan bolalar 0-4, 5-9, 10-14, 15-17 yosh ko'rsatkichlari bo'yicha ro'yxatga olinadi.

2022-2024 yillarda o'tkir limfoblast leykemiya kasalligi bilan kasallangan qizlar va o'g'il bolalar nisbatining tahlili bo'yicha quyidagi natijaga ega bo'lindi. Unga ko'ra 2022-yilda leykemiya 0-4 yoshdagi kasallangan bolalar soni 25 ta, 5-9 yoshdagi kasallangan bolalar soni 51 ta, 10-14 yoshdagi bolalar soni 22 tani tashkil etgan bo'lsa, 15-17 yoshdagi kasallangan bolalar soni esa 12 tani tashkil etgan.

2023-yilda 0-4 yoshdagi kasallangan bolalar soni 21 ta, 5-9 yoshdagi kasallangan bolalar soni 31 ta, 10-14 yoshdagi bolalar soni 23 ta, 15-17 yoshdagi kasallangan bolalar soni esa 16 tani tashkil etgan.

2024-yilda 0-4 yoshdagi kasallangan bolalar soni 41 ta, 5-9 yoshdagi kasallangan bolalar soni 36 ta, 10-14 yoshdagi bolalar soni 31 ta, 15-17 yoshdagi kasallangan bolalar soni esa 10 tani tashkil etgan. 2022-2024 yillar davomida 5-9 yoshgacha bulgan bolalar o'rtasida bu kasallik bilan kasallanish yuqori bo'lgan bo'lsa, 15-19 yoshdagi bolalarda esa boshqa yoshdagilarga nisbatan kasallanish past ekanligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya bilan kasallanish darajasi.

Kasallanish ko'rsatkichini viloyatlar bo'yicha tahlili olib borilganda Namangan, Toshkent, Samarqand viloyatlarida kasallanish ko'rsatkichi yuqori ekanligi va Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida kasallanish ko'rsatkichi kam ekanligi aniqlandi. 2022 -yilda jami 351 ta kasallangan bolalardan 23% asosan Namangan viloyatiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinda Samarqand viloyati 17% va Qashqadaryo viloyati 18% ga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2023 yilda bu ko'rsatkich quydagicha ko'rinishga ega bo'ldi. Jami 385 nafar kasallangan bolalardan 22 % Namangan viloyatiga to'g'ri keladi. Samarqand viloyati 18% va Qashqadaryo viloyati 13% teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Surxandaryo viloyati bo'yicha 2023- yil kasallanish ko'rsatkichi esa 2022-yilga nisbatan 16%

oshganligi aniqlandi. 2024-yilda bu ko'rsatkich quydagicha ko'rinishga ega bo'ldi. Jami 378 nafar kasallangan boladan eng ko'pi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Samarqand va Xorazm viloyatlari keyingi o'rinlarni egallagan. 2022-2024-yillarda Namangan viloyatida kasallangan bolalar soni oldingi o'rinlarni egallagan bo'lsa 2024-yilga borib 5-o'ringa tushganini ko'rishimiz mumkin.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra 2022-2024-yilgacha davr davomida o'tkir limfoblast leykemiya bilan kasallangan bolalar soni O'zbekiston bo'yicha sezilarli darajada o'zgargan. Ba'zi viloyatlarda kasallangan bolalar soni oshgan bo'lsa, ba'zi viloyatlarda sezilarli darajada kamayganligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).




2-rasm. Viloyatlar bo'yicha bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya bilan kasallanish dinamikasi tahlili.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 3 yil ichida 0-4 yoshgacha bo'lgan bemorlar orasida kasallangan bolalar soni 87 tani tashkil qilgan. 2022-yilda jami 25 ta bola kasallangan bo'lib,

shulardan 19 ta qiz bola, 6 tasi o'g'il bolalar. 2023-yilda esa jami 21 ta bola kasallangan bo'lib ulardan 11 ta o'g'il bolalar, 10 ta qiz bolalar. 2024- yilda 41 ta boladan 22 ta o'g'il

bolalar, 19 ta qiz bolalar leykemiya kasalligi bilan ro'yxatga olingan. Bu yoshdagi bolalarda 2022-yilda o'g'il bolalar soni kamayganligini va 2023-yilga borib o'g'il bolalar sonini


oshganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek 2024-yilda kasallangan bolalar soni eng kam 21 tani tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm. 0-4 yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligi tarqalishi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 3 yil ichida 5-9 yoshgacha bo'lgan bemorlar orasida kasallikning tarqalishi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi. 2022-yilda jami 51 ta bola leykemiya bilan kasallangan bo'lib, shulardan 29 tasi o'g'il bolalar, 22 tasi qiz bolalar, 2023-yilda bu ko'rsatkich 31 ta boladan 17 tasi o'g'il bola, 14 tasi qiz bolalarga


to'g'ri keladi. 2024-yilda jami 36 ta boladan 27 ta o'g'il bolalar, 9 ta qiz bolalar kasallangani aniqlandi. Bu yoshdagi bolalar orasida kasallikka chalingan qiz bolalar soni 2022-yilda 22 ta bo'lsa, 2024-yilga kelib 9 tagacha kamaygan. 2023-yilda esa kasallanish soni boshqa yillarga nisbatan past ekanligini ko'rishimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm. 5-9 yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligi tarqalishi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 3 yil ichida 10-14 yoshdagi bolalar o'rtasida leykemiya bilan kasallanish qiz va o'g'il bolalarda quydagi ko'rinishga ega bo'ldi. 2016 yilda jami 22 ta kasallangan boladan 16 ta o'g'il bolalar, 6 ta qiz bolalar, 2022-yilda 23 ta boladan 10 ta o'g'il bola, 13 ta qiz bola


kasallanganligi aniqlangan. 2024-yilda jami 39 ta boladan 20 ta o'g'il bola, 19 ta qiz bolalar leykemiya bilan kasallanganini ko'rishimiz mumkin. Bu yoshdagi bolalarda kasallanish 2022-yildan 2024- yilga keskin oshganligini ko'rishimiz mumkin (5-rasm).



5-rasm. 10-14 yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligi tarqalishi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 3 yil ichida 15-17 yoshdagi bolalar o'rtasida leykemiya bilan kasallanish ko'rsatkichi bo'yicha kasallanish quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi. 2022-yilda jami 12 ta boladan 10 ta o'g'il bola, 2 ta qiz bola, 2023-yilda jami 16 ta

boladan 11 ta o'g'il bola, 5 ta qiz bola kasallanganligi aniqlangan. 2024-yilda 10 ta boladan 8 ta o'g'il bola, 2 ta qiz bolalar kasallangan. Bu yoshdagi bolalarda asosan o'g'il bolalar ko'p kasallanganligini aniqladik (6-rasm).



6-rasm. 15-17 yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligi tarqalishi.

Muhokama. Olib borilgan tahlil natijasida o'tkir limfoblast leykemiya kasalligi O'zbekiston hududida ham keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Kasallikni erta aniqlash uni samarali davolashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz tomonidan bolalar o'rtasida onkogematologik kasalliklarni tarqalishini oldini olish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2020 yilda onkologik kasalliklarni davolash uchun onkologiya muassasalarida davolanadigan har bir bemorning bir kunlik dori vositalari va tibbiy buyumlari bilan taminlash xarajatlari uchun byudjed mablag'lari 2022-yildagi 3 250 so'mdan 2024 yilda 66 227 so'mgacha oshirildi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligidan olingan statistik malumotlarga asoslangan xolda O'zbekiston hududida bolalar o'rtasida 2022-2024 yillar bo'yicha o'tkir limfoblast leykemiya kasalligining tarqalish va kasallanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra asosan 5 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida kasallik boshqa yoshdagi bolalarga qaraganda yuqoriligi aniqlandi. Viloyatlar kesimi bo'yicha tahlil qilinganda kasallanish ko'rsatkichi Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida boshqa viloyatlarga qaraganda ancha yuqori ekanligi ko'rishimiz mumkin. Respublika hududida 2022-yildan 2023-yilga o'tkir limfoblast leykemiya bilan kasallangan bolalar soni ortgan bo'lsa, 2024-yilda kasallik

2023-yilga nisbatan kamaygan. Bu albatta O'zbekistonda kasallikni oldini olish, uni erta

aniqlash va albatta samarali davolash olib borilayotganining yaqqol ifodasidir.

Adabiyotlar:

1. Sultonova. G.A "Sut bezi havfli o'smasi kasalligini davolashda ishlatiladigan dori vositalarining farmakoiqtisodiy izlanishlari"- farmasevtika fanlari nomzodlik dissertatsiya.Toshkent 2011.-S.7-8
2. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko'rsatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 4-aprelagi PQ-2866, lex.uz
3. N.Q.Murodxo'jayev, T.Q.Xudoyqulov, M.D.Jo'rayev. Onkologiya // O'quv adabiyoti, "Abu Ali ibn Sino" nomidagi tibbiyot nashryoti –Toshkent 2002. – S. 4-38, 144-157
4. U.X.Usmanov, X.S.Zaynutdinov, X.M.Komilov "Kontent-analiz nomenklatury protiv yavnykh lekarstvennykh preparatov, zaregistrovannykh v Respublike Uzbekistan"-Farmasevtika jurnali.Toshkent.2019.-S.13-21
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Reestrlari

C
A
R
J
I
S